

# YURDKFANLARAXBOROTNOMASI В ЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



**Crossref**  
Content  
Registration

## TAHRIR HAY'ATI

### I. RUSTAMBEKOV

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

### B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari

### O. CHORIYEV

Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

### A. SAIDOV

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

### EDVARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasida professori, huquq doktori

### AMMAR YOUNAS

TDYU Biznes huquqi kafedrasida o'qituvchisi

### O. OKYULOV

TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### J. NEMATOV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### M. AMINJONOVA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

### M. RAHIMOV

TDYU Mehnat huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### O. NARZULLAYEV

TDYU Ekologiya huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### B. MURODOV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Tergov faoliyati kafedrasida boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

### A. MUXAMEDJANOV

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### N. NIYAZOVA

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi



german  
cooperation

DEUTSCHE ZUSAMMENARBEIT

Nashriyotchi:

giz Deutsche Gesellschaft  
für Internationale  
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Ushbu nashr GIZning "Markaziy Osiyoda huquqiy davlatchilikni qo'llab-quvvatlash" dasturi ko'magi doirasida chop etildi.

Dastur Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH (Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati) tomonidan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) buyurtmasi asosida amalga oshirilmoqda.

Mazkur jurnalning maxsus sonida keltirilgan ma'lumotlar, xulosalar, fikrlar va talqinlar mualliflarning fikrlaridir, ular hech qanday tarzda GIZ yoki BMZ nuqtayi nazarini aks ettirmaydi.

Bepul tarqatish uchun mo'ljallangan.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI  
huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК  
правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES  
legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agent-

ligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

© Toshkent davlat yuridik universiteti

# MUNDARIJA

- 5 **КОПЕЦКИ КРИСТОФ**  
Приветственное слово
- 6 **ЦИКО ЯН**  
Приветственное слово
- 9 **САЙДУЛЛАЕВ ШАХЗОД АЛИХАНОВИЧ**  
Приветственное слово
- 11 **СУЛТАНОВ РАВШАН АДILEВИЧ**  
Приветственное слово

## 12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA VOJXONA HUQUQI

- 13 **АЛАНАЗАРЗОДА ШАРОФ**  
Законодательство об административных процедурах и судопроизводстве Республики Таджикистан: опыт и перспективы реформирования
- 19 **ПУДЕЛЬКА ЙОРГ**  
Комментарий к закону и его роль в судебной практике: взгляд немецкого судьи
- 26 **ДОСМАМБЕТОВА ЧОЛПОН МОНОЛДОРОВНА**  
Применение административными судами Кыргызской Республики норм законодательства об административных процедурах, связанных с досудебным порядком обжалования
- 35 **ДУЙСЕНОВА ЖАНАР МУХАМЕДКАЛИЕВНА**  
Судебная практика проверки соблюдения административной процедуры
- 40 **YUSUPOV SARDORBЕК BAHODIROVICH**  
O‘zbekistonda ma’muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplarini qo‘llashning ayrim jihatlari
- 50 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЪЯС ТАВАСОВИЧ**  
Конституционные основы государственного управления: некоторые аспекты законодательной конкретизации
- 59 **NEMATOV JO‘RABEK NEMATILLOYEVICH**  
O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to‘lishi arafasida: asosiy yutuqlar va muammolar

- 72 **ЛИ АДИК**  
Система органов государственного управления  
в сфере предпринимательской деятельности
- 80 **ХВАН ЛЕОНИД БОРИСОВИЧ**  
Роль научных позиций в сфере публично-правового  
регулирувания и их перспективы в Республике  
Узбекистан
- 86 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**  
Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda mutanosiblik  
prinsipining o'ziga xos o'rni va uning huquqiy  
ahamiyati
- 95 **TURABOYEV IXTIYORJON QOBILOVICH**  
Soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashning  
o'ziga xos xususiyatlari
- 102 **SAMIG'JONOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**  
Budjet jarayoni va uning bosqichlari
- 110 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**  
Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud  
tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari
- 118 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**  
Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning  
subyekti sifatida
- 129 **RAJABOVA KARIMA QAHRAMONOVNA**  
Saylovga oid nizolarni hal etish usullari
- 135 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**  
Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish  
shakllari va turlarini tasniflash va tizimlashtirish
- 143 **JURAEVA ASAL BAKHTIYEVNA,**  
**ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI**  
A brief analysis of uzbekistan bit practice: investor  
and state dispute resolution
- 156 **XUDOYBERGANOVA MAVJUDA HAMROQULOVNA**  
Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning huquqiy  
asoslari
- 164 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**  
Институт социальной защиты государственных  
гражданских служащих: теоретические и  
методологические подходы
- 
- 164 **СПИСОК ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ СТРАН  
ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА РЕГУЛИРУЮЩИХ  
ИНСТИТУТ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУР**
-

33. UNCITRAL Arbitration Rule (as revised in 2010) (2011). <https://www.uncitral.org/pdf/english/texts/arbitration/arb-rules-revised/arb-rules-revised-2010-e.pdf>
34. UNCTAD (2009). Series on International Investment Policies for Development United. The Role of International Investment Agreements in Attracting Foreign Direct Investment to Developing Countries.
35. UNCTAD (2014). Investor-State Dispute Settlement UNCTAD Series on Issues in International Investment Agreements II. [https://unctad.org/en/PublicationsLibrary/diaeia2013d2\\_en.pdf](https://unctad.org/en/PublicationsLibrary/diaeia2013d2_en.pdf)
36. UNCTAD (n.d.). Investment Dispute Settlement Navigator. <https://investmentpolicy.unctad.org/>
37. United Arab Emirates – Uzbekistan BIT, para 3 (2007). <https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements/treaty-files/2368/download/>
38. United Kingdom – Uzbekistan BIT (1993). <https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements/treaty-files/3543/download/>

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.sn./PAHM6834>  
UDC: 342.5(045)(575.1)

## FARMATSEVTIKA FAOLIYATINI LITSENZIYALASHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Xudoyberganova Mavjuda Hamroqulovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi  
ORCID: 0000-0001-5065-8802  
e-mail: m.xudoyberganova@tsul.uz

**Annotatsiya.** Maqolada farmatsevtika faoliyatining bir yo'nalishi sifatida dori vositalari va tibbiy buyumlarini chakana realizatsiya qilish tartibi – mazkur faoliyatni litsenziyalash shartlari va talablari, shuningdek, dori vositalarini chakana realizatsiya qilish subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar huquqiy asoslarga tayangan holda batafsil o'rganib chiqilgan. Mamlakatimizning dori vositalari sohasiga oid barcha qonunlari aholini ijtimoiy himoya qilishda keng doiradagi fuqarolarga arzon va sifatli dori vositalarini yetkazish, tor doiradagi ayrim toifadagi fuqarolarini bepul yoki qisman haq to'lash asosida dori vositalari bilan taminlashni nazarda tutadi. Maqolaning predmeti farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini huquqiy jihatdan o'rganib chiqish va shu sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarni bir-biriga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hisoblanadi. Tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, umumlashtirish, ilmiy manbalarni kompleks tahlil qilish kabi metodlar asosida olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan umumiy xulosaga kelingan. Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashga doir qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** litsenziya, ruxsatnoma, litsenziyalash, talablar, farmatsevtika faoliyatni litsenziyalash, davlat boshqaruvi.

## ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЛИЦЕНЗИРОВАНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Худойбергано́ва Мавлю́да Ха́мрокуло́вна,**  
преподаватель кафедры «Административное и финансовое право»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В статье подробно рассмотрен порядок розничной реализации лекарственных средств и изделий медицинского назначения как направления фармацевтической деятельности: условия и требования лицензирования этой деятельности, а также сведения о субъектах розничной реализации лекарственных средств на законных основаниях. Все законы нашей страны в области фармацевтики предусматривают реализацию дешёвых и качественных лекарственных средств широкому кругу граждан в рамках социальной защиты населения, а также обеспечение лекарственными средствами отдельных категорий граждан бесплатно или на льготных условиях – на основании частичной оплаты. Предметом статьи является юридическое исследование порядка лицензирования фармацевтической деятельности и разработка предложений по гармонизации нормативных правовых документов в этой сфере.

**Ключевые слова:** лицензия, разрешение, лицензирование, требования, лицензирование медицинской деятельности, государственное управление.



## LEGAL BASIS OF LICENSING OF PHARMACEUTICAL ACTIVITY

**Khudoyberganova Mavlyuda Khamrokulovna,**

Tashkent State University of Law,  
Lecturer of the Department of Administrative and Financial Law

**Abstract.** *The article considers in detail the procedure of retail sale of medicines and medical devices as a direction of pharmaceutical activity - conditions and requirements for licensing of this activity, as well as information about the subjects of retail sale of medicines on legal grounds. All laws of our country in the field of pharmaceuticals provide for the supply of cheap and quality medicines to a wide range of citizens within the framework of social protection of the population, as well as the provision of medicines to certain categories of citizens for free or on the basis of partial payment. The subject of the article is a legal study of the order of licensing pharmaceutical activities and the development of proposals for harmonization of regulatory legal documents in this area. The general conclusion was made based on the results of the study, conducted on the basis of such methods as historicity, system analysis, comparative-legal, logical, generalization, and complex analysis of scientific sources. Proposals for amendments and additions to the legislation on licensing of pharmaceutical activity have been developed.*

**Keywords:** license, permit, licensing, requirements, licensing of pharmaceutical activity, public administration.

### Kirish

Aholiga bepul tibbiy yordam ko'rsatish va ijtimoiy ta'minot vositalariga doir huquqiy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari ma'muriy huquqning ijtimoiy taminot huquqi tarmoqlari normalarida namoyon bo'ladi. Fuqarolarga bepul tibbiy yordam ko'rsatishning qo'shimcha elementlaridan biri dori vositalaridir.

O'zbekistonda dori vositalari va farmatsevtika faoliyatini tartibga solishga doir qonun hujjatlari qabul qilinishi tarixini tahlil qiladigan bo'lsak, istiqloлга qadar dori-darmon va tibbiy buyumlarning deyarli barchasi chet mamlakatlardan keltirilgani, farmatsevtika bozoridagi mahsulotlarning atigi 0,2 foizi mahalliy korxonalar hissasiga to'g'ri kelgani sababli farmatsevtika sohasini tartibga solishning qonuniy asoslari yetarli darajada yaratilmaganini ko'rish mumkin.

Yurtimizda mustaqillikning dastlabki yillarida olib borilgan sog'liqni saqlash sohasiga oid islohotlar natijasi o'laroq, farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish, dori vositalari va tibbiy buyumlarning qonuniy aylanmasini

ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunini bunga misol sifatida keltirish mumkin. Bu bir necha yillardan beri dori vositalari va farmatsevtika faoliyati sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solayotgan yagona qonun bo'lib kelmoqda.

### Material va metodlar

Mazkur tadqiqotdan maqsad farmatsevtika faoliyati tushunchasining nazariy asoslarini va farmatsevtika faoliyati yo'nalishlarini o'rganish, farmatsevtika faoliyatini tartibga solishda davlat boshqaruvi organlarining vakolatlarini tahlil qilish va ushbu sohadagi qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot olib borishda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, umumlash-tirish, ilmiy manbalarni kompleks tahlil qilish kabi metodlar qo'llangan.

### Tadqiqot natijalari va tahlili

Bugungi kunga kelib, butun dunyo bo'ylab farmatsevtika sanoati izchil taraqqiy

etayotgani, xususan, mamlakatimizda ham farmatsevtika faoliyatini takomillashtirishga doir qator islohotlar amalga oshirilayotgani, dori vositalari muomalasi, ulardan tibbiyotda foydalanish jarayonlarida ko'plab yangiliklar yuzaga kelayotgani sohadagi qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etdi. Natijada rivojlangan mamlakatlarning ushbu yo'nalishdagi qonunchiligi puxta o'rganilib, orttirilgan ilg'or tajribalar atroflicha tahlil etilgan holda, 2016-yilda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi farmatsevtika faoliyatining yo'nalishlari, ya'ni dori vositalari hamda tibbiy buyumlarni tayyorlash, ishlab chiqarish, nazorat va realizatsiya qilishga oid qoidalarning sezilarli darajada takomillashuviga olib keldi. Bu esa sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni qaytadan ko'rib chiqish va uni hozirgi kun qonunchilik talablariga moslashtirish zaruriyatini uyg'otdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasida Sog'liqni saqlash vazirligi tizimini takomillashtirish yuzasidan farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning mexanizmlarini ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi belgilangan.

A.V. Soloninaning fikricha, farmatsevtika faoliyati deganda ishlab chiqaruvchidan tortib iste'molchiga qadar yetib kelish bosqichida amalga oshiriladigan dori vositalari muomalasi, davolash-profilaktika, diagnostika vositalari, tibbiy buyumlar, parafarmatsevtika mahsulotlari sohasida farmatsevtika xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha sog'liqni saqlash tizimidagi professional faoliyat tushuniladi (Khabriyev, Telnova, & Parkhomenko, 2005).

O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni hamda "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashni tartibga soluvchi qonun hujjatlaridan hisoblanadi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlardan tashqari litsenziyalash jarayonlari bilan bog'liq huquqiy munosabatlar Prezident farmonlari va qarorlari, tegishli hukumat qarorlari bilan qabul qilingan ma'muriy reglamentlar hamda Sog'liqni saqlash vazirligining mazkur sohaga doir buyruqlari hamda tushuntirish xatlaridan o'rin olgan.

Amaldagi "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga ko'ra, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Biroq "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasida esa farmatsevtika faoliyatining yo'nalishini – dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi ta'kidlangan. Shu o'rinda bir qator savollar tug'ildi: farmatsevtika faoliyati o'zi nima? Uning yo'nalishlari nimalardan iborat? Mazkur faoliyat aslida qaysi davlat organi tomonidan tartibga solinadi?

Quyida mazkur savollarga javob topish uchun mustaqillik yillaridan to hozirgi kungacha qadar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilamiz.

"Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, farmatsevtika faoliyati – dori vositalari va tibbiy buyumlarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek, ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat hisoblanadi. Mazkur qonunning 15-moddasiga muvofiq, farmatsevtika faoliyatining bir nechta yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:



dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari;  
dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish;

dori vositalarining va tibbiy buyumlarining sifatini nazorat qilish;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash;

dorivor o'simlik xomashyosini qadoqlash va ulgurji realizatsiya qilish.

Farmatsevtika faoliyati uchun litsenziya berish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunga asosan maxsus vakolatli organ tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

"Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, dori vositalari va tibbiyot buyumlarini realizatsiya qilish farmatsevtika faoliyatining bir yo'nalishi bo'lsa-da, amaldagi qonunchiligimizga muvofiq, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash Sog'liqni saqlash vazirligiga, uning bir yo'nalishi bo'lgan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash vakolati esa mahalliy davlat hokimiyati organlariga berilgan. Bir faoliyat turi uchun ikki xil davlat organi tomonidan litsenziya berilishining huquqiy asoslarini qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, shu soha yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida bir qator nomutanosibliklar mavjud ekanini ko'rishimiz mumkin.

Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash vakolati ilk bora 1996-yilda "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunga asosan, Sog'liqni saqlash vazirligiga berilgan. Keyinchalik, 1997-yilda qabul qilingan "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, Sog'liqni saqlash va-

zirligi dori vositalari, tibbiy buyumlar ishlab chiqarish va aholini ular bilan ta'minlashga doir faoliyat turlari uchun litsenziya berishi belgilandi. Shu zaylda farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning huquqiy asoslari bo'lgan 2 ta qonun asosida 2 xil talqindagi huquqiy norma bilan tartibga solinadigan bo'ldi. Ammo 2006-yilga kelib, "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, Sog'liqni saqlash vazirligi belgilangan tartibda farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashni amalga oshiradi, degan jumalar bilan o'zgartirildi va "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonun bilan muvofiqlashtirildi. Natijada 2016-yilga qadar farmatsevtika faoliyatining barcha yo'nalishlarini litsenziyalash faqtgina Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshirib kelindi.

Oxirgi yillarda aholining yashash farovonligini oshirish, ularning sog'liqni saqlashga doir konstitutsiyaviy huquqini mustahkamlash, sifatli va arzon dori vositalari bilan ta'minlash bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida farmatsevtika faoliyatining yo'nalishi – dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'tkazildi. Mazkur yo'nalishdan boshqa barcha yo'nalishlarni litsenziyalash Sog'liqni saqlash vazirligi zimmasida qoldi. Biroq mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan dori vositalarini chakana realizatsiya qilish uchun litsenziya berish tartibi hech bir normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinmagani sababli amalda bu huquqiy normalar o'zini oqlamadi. Natijada O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli qonuniga muvofiq, "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash vakolati olib tashlandi. Bu vakolat yana Sog'liqni saqlash vazirligi

zimmasiga yuklatildi. Biroq mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan dori vositalarini chakana realizatsiya qilish uchun litsenziya berish vakolati hamon “Fuqarolar sog’lig’ini saqlash to’g’risida”gi Qonunda saqlanib qolmoqda.

Yuqoridagilarga asosan shu xulosaga kelish mumkinki, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashga doir vakolat davlat organlari o’rtasida bir necha bor taqsimlanishi mazkur vakolat barqaror bo’lmaganini ko’rsatadi.

O’zbekistonda litsenziyalash instituti joriy qilinganiga deyarli 20 yildan oshdi. O’tgan yillar davomida litsenziyalash tizimini takomillashtirish, ya’ni yurtimizda aholiga davlat xizmatlarini ko’rsatishda turli byurokratiizm, sansalorlik va boshqa ma’muriy to’siqlarni bartaraf etish bo’yicha bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Ma’muriy islohotlar natijasida litsenziyalovchi organlar faoliyatining shaffofligini oshirishga, litsenziyalashga doir faoliyat turlarining qisqarishiga va litsenziyalash tizimining takomillashuviga erishildi.

O’zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini (dori vositalari ishlab chiqarish va tayyorlash, dori vositalari va tibbiy buyumlarning ulgurji hamda chakana realizatsiyasi) litsenziyalash tartibi O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi O’RQ-701-sonli “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to’g’risida”gi Qonuni hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yilda 21-fevraldagi 80-sonli qarori asosida amalga oshirildi. Unga ko’ra, litsenziya olish uchun ariza berish faoliyatning litsenziyalanadigan turini, shu jumladan, har bir kichik turini tanlab, elektron shaklda “*license.gov.uz*” saytiga yuklash yoki O’zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshiriladi (Kuznetsova & Galejeva, 2011).

Farmatsevtika faoliyatini tartibga solishning parametrlari davlat organlari (ijro hokimiyati organlari) hamda o’z-o’zini tartibga soluvchi tashkilotlar (professional

uyushmalar va farmatsevtika jamiyatlari) tomonidan o’rnatiladi. Dori vositalarini ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bo’yicha davlat tomonidan tartibga solishning barcha shakllari milliy xarakterga ega bo’lib, har bir davlatning qonunchilik xususiyatlari, davlat tuzilishi, sog’liqni saqlash organlari va farmatsevtika xizmatining tuzilmalari, an’analari va mavjud resurslaridan kelib chiqadi (Sboyev, Bagirova, & Krasnyuk, 2003).

“O’z-o’zini davolash” konsepsiyasining hamda sog’liqni saqlashga doir xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosatining keng tarqalishi fuqarolarda yengil kasalliklar vujudga kelganda shifokor retseptsiz dori-xonalarga murojaat qilish jarayonini ko’paytiradi. Bu farmatsevtika mutaxassislariga iste’molchiga yangi turdagi xizmatlarni taklif qilish imkoniyatini beradi. Farmatsevtika bozorida dorixonalarning o’rni va roli o’zgarishi farmatsevtik mahsulotlarning savdo ulushi oshishi bilan bog’liq (Kopachevskaya, 2007).

Yuqorida qayd etilgan faktorlar shuni ko’rsatadiki, retseptsiz dori vositalarini qo’llashga doir ko’rsatmalarining kengayishi dori vositalarining chakana savdosi ustidan davlat nazoratini o’rnatishda bir qancha qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Dorilarning xavfsizligi insonlarning sog’lig’i va hayotiga bevosita aloqador bo’lib, buni ta’minlash uchun nafaqat dorilar sifatini nazorat qilish, balki dori vositalari mumomalasining barcha bosqichlarida, shu jumladan, GDP (yaxshi distribyutorlik amaliyoti) va GPP (yaxshi dori-xona amaliyoti)larda dorilarning ta’minlanishi ham muhim hisoblanadi. (<https://www.uzpharm-control.uz/uz/news/view/2018-10-18-GMP-GDP>).

Tahlil shuni ko’rsatadiki, zamonaviy “afzal bilish tajribasi” farmatsevtika faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning alohida usullari ko’p hollarda quyidagicha tasniflanadigan faktorlarga bog’liq (Melnichuk, 2007):

tashqi manba faktorlari (sog'liqni saqlash sohasidagi siyosat, dori vositalari bozorlarining hajmlari, bepul tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi (OMS), bozorning institutsional infrastrukturasini);

ichki faktorlar, ya'ni bozorni tartibga solish tizimi (ma'muriy jarayonlarning samaradorligi, normativ huquqiy baza)ni yaratish.

Ayrim mamlakatlarda tadbirkorlarga farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma berilganda litsenziyalash qo'llanadi, ayrimlarida esa tadbirkorlik faoliyati boshlanganda shunchaki xabardor etish tartibi o'rnatilgan. Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning afzalliklari mazkur faoliyatni nazorat qilishni ta'minlash imkoniyatini o'z ichiga oladi, lekin shu bilan birgalikda, cheklovchi tadbirlar ruxsatnoma beruvchi ma'muriy apparatda korrupsiyaning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin (Medicines, 1991–1996). Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashda ham, xabardor etishda ham davlat xorijiy farmatsevtik kompaniyalarga farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun taqiqlovchi va chegaralovchi choralarni qo'llashi yoki ularning muayyan hududlarda shunday faoliyat bilan shug'ullanishga cheklov qo'yishi mumkin.

Xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash mexanizmi orqali tartibga solish azaldan va yetarlicha keng qo'llanadi. Bunda mexanizmning o'zi detallashtirishning yuqori darajasida ishlab chiqilgan bo'lib, huquqiy normalar asosida amalga oshiriladi. Davlat nazoratining azaliy urf-odatlarini mavjud bo'lgan farmatsevtika bozori rivojlangan davlatlar (Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Norvegiya, AQSh, Yaponiya)da litsenziyalash nazorati organlarlarining tashkil etish strukturasi nazorat obyektlarini chegaralash, shuningdek, nazorat vakolatlarini ham chegaralash asosida gorizontol va vertikal hokimiyat munosabatlarning qurilishini

yaratish zaruratiga asoslangan bo'ladi (Uzbekistan National Encyclopedia, 2000).

Litsenziyalash nazoratini tashkil etishning ma'muriy modeli nazorat vakolatlari umumiy vakolatli mahalliy davlat hokimiyati organlariga yoki ijro organlari tizimida bo'lgan maxsus nazorat institutlariga tegishli bo'ladi. Qoidaga ko'ra, mazkur mamlakatlarda farmatsevtika faoliyati (dori vositalari muomalasi)ni tartibga solishning barcha instrumentlarini: farmatsevtika faoliyatiga bo'lgan professional talablar; sertifikatlash; mulkiy masalalarni ro'yxatga olish va tartibga solish; litsenziyalash; farmatsevtlar uchun bevosita talablar; kasbiy axloq kodeksi va xulq-atvor qoidalariga tasniflash mumkin. Ba'zi mamlakatlarda farmatsevtika faoliyati (apteka)ni litsenziyalash va farmatsevtlarni tayyorlash mahalliy darajada, ya'ni hududiy doirada (Kanada, Norvegiya va AQSh) amalga oshiriladi. Hududiy (mahalliy) darajadagi litsenziyalashning shartlari odatiy litsenziya talablari va litsenziya qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarni o'rnatish bilan deyarli o'xshash bo'ladi (Medicine, 1938).

Amaliyotni faqat ro'yxatdan o'tgan farmatsevtgina o'tashi mumkin. Qayd etilgan barcha mamlakatlarda farmatsevtika faoliyatini tartibga solish dori vositalarini tayyorlashga bo'lgan huquqni maxsus ruxsatnoma asosida olishni nazarda tutadi (farmatsevt olishi mumkin). Yevropaning barcha mamlakatlari – Yevropa Ittifoqining dorixonaga oid qonunchiligi negizida 1994-yil 31-mayda Farmatsevtik jamoalar Yevropa forumida qabul qilingan Kopengagen deklaratsiyasi yotadi.

Yevropaning turli mamlakatlarida dorixona mulkchiligi shakllari, farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqi turlichadir. Kontinental Yevropa mamlakatlarida Buyuk Britaniya va Irlandiyadan farqli o'laroq, o'xshash prinsiplar amal qiladi. Norvegiyada farmatsevt litsenziyani bitta dorixona va uning 3 ta filialiga egalik qilish uchun olishi

mumkin. Daniya dorixonalari faqat provi-zorga tegishli bo'lishi mumkin, Germaniya, Norvegiya va Fransiyada esa 1 tadan ortiq dorixonaga egalik qilish mumkin emas. Niderlandiyada ruxsatnoma olishning majburiy shartlaridan biri assotsiatsiyaga a'zo bo'lishdir. Buyuk Britaniya va AQShda esa bunday cheklovlar mavjud emas (Engel & Siderius, 1968).

### Xulosa

Xorijiy mamlakatlarda farmatsevtika faoliyatini tartibga solishning xususiyatlari va tendensiyalarining tahliliga ko'ra, shunday xulosaga kelish mumkinki, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash dunyoning ko'plab mamlakatlarida ruxsat berish xarakteriga ega.

Farmatsevtika faoliyatini ma'muriy-huquqiy tartibga solish shakli sifatida litsenziyalashning kamchiliklari qisman "farmatsevtika bozorini davlat tomonidan tartibga solishning aniq siyosati yo'qligi" bilan bog'liq.

Farmatsevtika bozorini davlat tomonidan tartibga solishning aniq siyosati yo'qligini quyidagi holatlarda kuzatish mumkin bo'ladi:

- 1) byurokratik va korrupsion bosim;
- 2) bozorga kirish to'siqlari;
- 3) farmatsevtika biznesini tartibga soluvchi qonunchilikni tayyorlash va unga o'zgartirishlar kiritishning to'satdan paydo bo'lishi;
- 4) normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash jarayonida farmatsevtika bozorining ixtisoslashgan uyushmalar va subyektlarini jalb qilishga rasmiy yondashuv;
- 5) axborot to'siqlari;
- 6) litsenziyalash sohasida yuqori malakali mutaxassislarining yetishmasligi.

Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tizimini tashkil etish muammosiga pragmatik yondashuv (davlat va xususiy manfaatlariga rioya qilish) ruxsat berish (litsenziyalash) talablarini tuzatishga qaratilgan amaldagi litsenziya qonunchiligidagi kichik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Litsenziyalash farmatsevtika bozorini tartibga solish vositalaridan biri bo'lib, undan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish (aholining hayot sifatini oshirish, aholini dori vositalari bilan ta'minlash) maqsadlarida samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Litsenziyalash (ruxsat berish) talablari farmatsevtika faoliyatining ijtimoiy ta'sir etish imkoniyatini hisobga olgan holda, ya'ni tartibga solishning maqsad va vazifalarini aniq tushungan holda ishlab chiqilishi lozim. Aytaylik, sog'liqni saqlash tizimi rivojlangan farmatsevtika bozorining yetakchilari bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar davlat boshqaruvining ayrim xususiyatlariga – davlat tomonidan tartibga solish tajribasini o'rganish orqali o'zini to'laligicha oqlagan va istiqbolli institutsional chora-tadbirlarga e'tibor qaratish kerak. Bunday chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

boshqaruvning barcha bo'g'inlarida (federal, subyekt darajasi, mahalliy) litsenziyalash masalalariga yagona yondashuvni ta'minlash, tor idoraviy yondashuvni yo'q qilish;

farmatsevtika faoliyatini nazorat qilish va kolatlarini aniq chegaralash asosida gorizont va vertikal kuch munosabatlari arxitekturasini yaratish;

litsenziyalash metodologiyasini takomillashtirish uchun eng yaxshi amaliyotlarni hisobga olish: tartibga solish predmetini kengaytirish (dorixona tarmog'ini oqilona shakllantirish, dorixonalar orasidagi masofani, maydonlar va omborxonalar hajmini hisobga olish, ektemporal dorilarni noyob dorixona xizmatlari sifatida ishlab chiqarishni litsenziyalash va boshqalar);

yagona yetakchilik va individual javobgarlik tamoyillarini ishlab chiqish;

litsenziya talabgoriga nisbatan malaka talablarining yuqori darajasini belgilash, agar ular qonunda aniq belgilangan bo'lsa (oliy yoki o'rta farmatsevtika ma'lumoti va ma'lum bir ish staji – kamida besh yil).



## REFERENCES

1. Djalilov, Kh., & Ibragimova, M. Y. (2016). Law of the Republic of Uzbekistan "On medicines and pharmaceutical activity" (new ed.). (In Uzbek). *Pharmaceutical Bulletin of Uzbekistan*, 1, 24–25.
2. Engel, A. & Siderius, P. (1968). *The consumption of drugs*. Report on a study. WHO Regional Office for Europe 1968. Document EURO 3101.
3. Khabriyev, R. U., Telnova, E. A., & Parkhomenko, D. V. (2005). Actual Problems of Caring for Socially Vulnerable People in Terms of Medicinal Help (In Russian). *The Pharmacy*, 4, 5–8.
4. Khudoyberganova, M. (2021). The role of public administration in the development of pharmaceutical sector in the republic of Uzbekistan. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(1), 147–152.
5. Khudoyberganova, M. Kh. (2021). Organizational and legal framework for improving the activities of medicines and pharmaceuticals in the Republic of Uzbekistan (In Uzbek). *Journal of Law Research*, SI-1, 99–111. doi:10.26739/2181-9130
6. Kopachevskaya, S. V. (2007). Development of an organizational and functional model for licensing pharmaceutical activities (In Russian) (p. 32). [PhD thesis]. Moscow.
7. Kuznetsova, A. M., & Galeyeva, Z. M. (2011). The Medicinal Provision in Tatarstan Republic (In Russian). *Bulletin of Law, Economics and Social Science*, 2, 218–222.
8. Medicine. (1938). In *Big soviet encyclopedia* (In Russian) (1st ed., vol. 36, p. 273). Moscow: Sovetskaya ensiklopediya.
9. Medicines. (1991–1996). In *Little Medicine Encyclopedia* (In Russian). Moscow: Meditsinskaya ensiklopediya.
10. Melnichuk, G. V. (2007). Licensing as a form of state regulation of business activities in Russia and the USA (In Russian) (p. 34). [PhD thesis]. Moscow.
11. Sbojev, G. A., Bagirova, V. L., & Krasnyuk, I. I. (2003). Technologies for harmonization of systems of state regulation, registration, control of production and use of medicines (In Russian). *Economic Bulletin of Pharmacy*, 10.
12. Uzbekistan National Encyclopedia (2000). (In Uzbek) (vol. 1). Tashkent.
13. Vnukova, V. A. (2006). The Legal Analysis of Medicinal Provision Given to Privileged Categories of Citizens (In Russian). *Bulletin of Belgorod University of Cooperation, Economy and Law*, 3, 304–308.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI  
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК  
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,  
professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,  
professor

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, M. Sharifova,  
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

**Musahhih:** K. Abduvaliyeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 16.02.2024-yilda tipografiyaga  
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.  
Shartli 21,15 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 21.  
TDYU tipografiyasida chop etildi.